DOI: 10.65322/j.srd.04182026.37

UDK 323:101(575.1)

GENDER TENGLIGIGA IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV: NAZARIYA VA ZAMONAVIY MUNOSABATLAR

Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich, *PhD,*
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi,
E-mail: x.mirzaxalov@gmail.com,
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gender muammosi faqat ayolning emas, balki erkaklarning ham, jamiyatning ham muammosi ekanligi haqida fikr yuritilgan. Gender munosabatlar butun madaniyat, jamiyat qurilishi, davlat institutlarini qamrab oladi. Gender tahlili aholi ehtiyojlarini qondirish metodlarini, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning barcha bosqichlarida qatnashuvchi ishtirokchilarning faoliyatini o'rganib, ham xotin-qizlar, ham erkaklarning qarashlarini hisobga olgan holda optimal yo'l tanlash uchun takliflar beradi.*

Аннотация: *В данной статье аргументируется, что гендерная проблема является не только женским вопросом, но и актуальной проблемой мужчин и общества в целом. Гендерные отношения охватывают всю культуру, социальное устройство и государственные институты. Гендерный анализ, изучая методы удовлетворения потребностей населения и деятельность участников на всех этапах экономических, политических и социальных процессов, предлагает оптимальные решения с учетом интересов и позиций как женщин, так и мужчин.*

Annotation: *This article argues that the gender issue is not solely a women's concern, but a critical problem affecting men and society as a whole. Gender relations encompass the entirety of culture, social structure, and state institutions. By examining the methods of meeting population needs and analyzing the activities of participants across all stages of economic, political, and social processes, gender analysis offers recommendations for selecting optimal solutions that incorporate the perspectives of both women and men.*

Kalit so'zlar. *Gender, fenomen, produktiv, reprokduktiv, determinant, «women's studies», «feministik», jins, ijtimoiy xarakter, ijtimoiy mavqei, mikrovoqe'lik, farqlanish nazariyasi.*

Ключевые слова: *Гендер, феномен, продуктивный, репродуктивный, детерминант, «women's studies», феминистский, пол, социальный характер, социальный статус, микрореальность, теория дифференциации.*

Keywords: *Gender, phenomenon, productive, reproductive, determinant, "women's studies", feminist, sex, social character, social status, micro-reality, theory of differentiation.*

Kirish. Jamiyat sohalari taraqqiyotining uzviyligini ta'minlashda gender omilining o'ziga xos o'rni bor. Xotin - qizlarning ijtimoiy faolligini rolini oshirish, ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash, jamiyatning faol subyektiga aylantirish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Jamiyatga ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy rivojlanish dinamikasi ijtimoiy jarayonlarning yangi o'lchovlarini paydo bo'lishiga, insonlarning borliqdagi ijtimoiy rolini o'rganish masalasini o'rganishni taqozo qilmoqda. Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichi ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanishning muayyan maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydi. O'zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olayotgan bir davrda inson faoliyati, odamlar o'rtasidagi munosabat shakllari ularning faoliyatidagi o'zgarishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillardagi fan - texnika taraqqiyotining mislsiz darajadagi jadallashuvi davlat va jamiyat boshqaruvidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida "gender" tushunchasiga e'tiborni yanada

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.37

kuchaytirmoqda. Ayniqsa, pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik kabi fanlar doirasida gender bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarini amalga oshirmoqda.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarning ko‘lami keng bo‘lishiga qaramasdan hozirda faol iste’molda bo‘lgan gender so‘zining tushunilishi va qo‘llanish holatlaridagi noto‘g‘ri talqin va tasavvurlar mavjudligini ta’kidlash joiz. Shu bois hozirda gender tushunchasining mazmun-mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyatida xotin-qizlarning mavqei ham jamiyatning oila munosabatlariga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi. Oilaviy munosabatlar ijtimoiy hayotni belgilashda juda muhim ahamiyatga ega, deb qaraydigan xalqlar orasida ayolning mavqei birmuncha yuqori turadi. Shuning uchun ham kishilik jamiyatining ilk davrida, ya’ni ona urug‘i hukmronlik qilgan davrda ayollarning mavqei juda yuqori bo‘lgan va u jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ahamiyat kasb etgan.

Keyinchalik oila xo‘jaligini yuritish o‘zining ijtimoiy xarakterini yo‘qotgach, ayollarning ijtimoiy mavqeiga ham putur yetdi. Jamiyat iqtisodiy jihatdan yanada yuksaldi, lekin ayolning obro‘-e’tibori ko‘tarilmadi [1].

Demak, ijtimoiy ishlab chiqarishda ayolning o‘rni jamiyatning oila taraqqiyotiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Insoniyat bor imkoniyatlarini oila taraqqiyotiga qaratmog‘i, oilaning ijtimoiy hayotga ta’sirini kuchaytirmog‘i lozim. Faqat shundagina ayolning ijtimoiy mavqei, uning obro‘-e’tibori qayta ko‘tarilishi mumkin. Ijtimoiy ishlab chiqarishning faqat bir tomoni, ya’ni mehnatga munosabat taraqqiy etishi bilan oila taraqqiyoti orqada qolishi jinslar orasidagi munosabatlarning nomutanosibligiga olib keladi.

Odamzotning o‘z zurriyodini dunyoga keltirishi va voyaga yetkazishi o‘ziga xos murakkab jarayon. Bu ko‘proq ayolga bog‘liq bo‘lib, bu vazifani bajarishda turli psixoemotsional kechinmalar kabi murakkabliklar vujudga keladi. Demak, jamiyat mana shu jarayonning mushkulligini tan olishi muhim. Ayolning homiladorligi, farzand tug‘ishi, uning uzoq vaqt parvarishga, his - tuyg‘u, e’tiborga muhtoj bo‘lishi onadan bu ishlarni sabr-toqat bilan bajarishni talab etadi. Ammo bu mehnat jamiyat tomonidan yetarlicha baholanmaydi.

Ayollarning vazifasi bu bilangina cheklanib qolmaydi, ular jamiyatda reprokduktiv, produktiv va ijtimoiy vazifalarni bajaradilar. Tarixan, erkaklar odatda produktiv va ijtimoiy - siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelganlar. Reprokduktiv vazifa - bola tug‘ish, tarbiyalash va uy-xo‘jaligini yuritish zaruriyatini nazarda tutadi. Produktiv vazifa - erkak va ayol tomonidan birgalikda moddiy boylik yaratish uchun amalga oshiriladigan faoliyatdan iborat. Ijtimoiy vazifa - odamlarning sog‘lig‘ini saqlab turish, ta’lim, tarbiya kabi jamoat ishlarida namoyon bo‘luvchi faoliyatidir. Bu esa o‘z navbatida, xizmat haqi to‘lanmaydigan, ixtiyoriy ravishda, ya’ni ko‘p hollarda insonning bo‘sh vaqtlarida bajariladigan mehnat faoliyatidir. Ijtimoiy - siyosiy vazifa-ko‘pincha erkaklar tomonidan jamiyat yoki rasmiy siyosiy darajada, milliy siyosat doirasida bajariladigan faoliyatdir.

Ma’lumki, reprokduktiv faoliyat butun insoniyat tarixi davomida asosan ayollar tomonidan haq to‘lanmaydigan mehnat sifatida bajarib kelingan. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkaklar o‘zlarining umumiy ish vaqtining 70%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uning to‘rtdan uch qismidan ko‘prog‘ini haq to‘lanadigan mehnat faoliyatiga sarflaydilar.

Ayollar esa erkaklardan farqli o‘laroq, o‘z vaqtining to‘rtdan uch qismini haq to‘lanmaydigan va faqat to‘rtdan bir qismini haq to‘lanadigan mehnat faoliyatiga sarf qiladilar [2]. Shu bois erkaklar jamiyatda yuzaga kelayotgan daromadning eng katta qismiga ega bo‘ladilar va o‘zlarining iqtisodiyotga qo‘shayotgan sezilarli ulushlari uchun ham jamiyat a’zolari tomonidan ularning ahamiyatli ekanligi e’tirof etiladi. Ayollar mehnatining reprokduktiv qismi esa jamiyat tomonidan yetarli darajada e’tirof etilmasdan va baholanmasdan kelgan. Bunday holat ayol bilan

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.37

erkak o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi an’anaviy ijtimoiy me’yorlar va urf-odatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Shunday qilib, jinsiy tavofutlarning ham o‘ziga xos, umumiy sababiy bog‘lanishlari (determinantlari) mavjud bo‘lib, bular ta’sirida erkaklarga xos bo‘lgan kuchlilik, mustaqillik, faollik, tajovuzkorlik, ratsionallik, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish kabi xususiyatlar rivojlangan bo‘lsa, ayollarda esa zaiflik, tobelik, sustkashlik, muloyimlik, hissiyotga moyillik, boshqalar yordamiga muhtojlik, ta’sirchanlik va shu kabi xarakter xususiyatlari yuzaga chiqqan [3].

Erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi bunday ziddiyatli tafovutlarga qaramay, jinslar bir-biriga nisbatan doimiy ma’naviy-ruhiy ehtiyoj sezadilar. Inson tabiatan jinslarga ajratilgan bo‘lsa-da, ruhan umumiy yaxlitlikka intiladi. Tabiatan erkak va ayol ruhiy tomondan bir-birlarini to‘ldiradilar, bir-birlaridan ruhiy va ma’naviy kuch-quvvat oladilar. Shu tarzda inson mukammalashib, ma’naviy yuksalib boradi. Gender munosabatlar murosa, o‘zaro kelishuv va hurmat asosiga qurilsa natijali bo‘ladi. Ruhiy begonalashuv esa jinslarning orasiga ixtilof solib, ma’naviy qashshoqlik va ruhiy g‘ariblik sari yetaklaydi.

Bu ehtiyojlarning barchasi erkak va ayol jinsini bir-biriga bog‘laydi, ularni yaxlit, bir butun holda tarkib topishlari va faoliyat olib borishlarini ta’minlaydi. Jinslar orasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo‘lib, tabiat va jamiyatning eng umumiy qonuniyatlari esa gender g‘oyasida o‘z ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo‘ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiylashuvi jarayoni hokimiyat, zo‘ravonlik, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, erkinligi va boshqa sohalarda individning ijtimoiy rollari alohida muammolar sifatida oydinlashtirilgan [4]. Sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biri bo‘lgan insonning ijtimoiy mohiyati muammosi gender nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi va bu holat bugungi kunda butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o‘z aksini topmoqda.

Bu g‘oyaning ilgari surilishi natijasida umumbashariy tafakkurda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi gender tenglikni ta’minlash zaruriyati kun tartibiga qo‘yilmoqda, ularning huquqlari va imkoniyatlari tengligini kafolatlashga harakat qilinmoqda [5].

Gender g‘oyasi ilmiy yo‘nalish sifatida feministik g‘oyaning nazariyasi va amaliyotining jadal rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Mazkur ilmiy oqim rivojlanishining yangi bosqichi XX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. Uning asosiy xususiyati gender tizimi tahlilidir. Ayollar tadqiqotlari, ya’ni «women's studies» asta-sekin gender tadqiqotlariga aylana boshladi. Bunda ijtimoiylik va madaniyatning barcha jihatlari gender o‘lchoviga ega bo‘lishi mumkin, degan fikrga asoslangan g‘oyalar ilgari surildi. Bunda nafaqat feministik tadqiqotlarning mazmuni, balki tahlil shakli ham o‘zgardi. Jumladan feminizmga xos bo‘lgan ayrim keskin qarashlar o‘rniga barcha ijtimoiy jarayonlarda genderning mavjudligi, shakllanishi va qayta tiklanishini anglashga bo‘lgan intilish kuchaydi.

Bu borada gender madaniyatining shakllanishi uning ijtimoiy-kasbiy fenomen sifatida qaror topa borishi va o‘z navbatda kasbiy madaniyatning yangicha tarkibiy qismi deya e’tirof etila boshlashi ham xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatlar tizimini o‘zgarishiga turtki bo‘ldi. Mazkur munosabatlarning yana bir muhim tarkibiy elementlaridan hisoblangan ijtimoiy munosabatlar tizimi ham o‘z ishtirokchilarini turli sohadagi xizmatchilarning kasbiy faoliyatida aks etishi bilan belgilanadi. Gender tizimining shakllantiruvchilik omili erkaklar va ayollarning madaniy tarbiyalanishida hal qiluvchi masalalardan hisoblanadi.

XX asrning 90-yillarida hokimiyat munosabatlarida gender tengligi qanday darajada ekanligi tahlil etiladi va bunda erkaklar mentaliteti tazyiqini ifodalovchi siyosiy-madaniy istioralar izohlanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, genderning rasmiy tan olinishi va rivojlanish tendensiyalari dunyoning eng dolzarb muammosiga aylandi. Eng muhimi, feminist ayollarning xatti-harakati, so‘ngra gender va ilm-fan, hokimiyat ham gender o‘rtasidagi munosabatlarni ochib

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.37

berishga qaratilgan nazariyalarni o‘rganish zaruriyatini kuchaytirdi. Ijtimoiy ma’noda gender tengligi nuqtai nazaridan yondashuvni shakllantirish yangi nazariya paydo bo‘lishiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Bu mohiyatiga ko‘ra yangi nazariya bo‘lib, uni tan olish ba’zan insoniy qadriyatlar o‘zgarishi, ko‘plab odatdagi tasavvurlar va «haqiqatlar» ning qayta ko‘rib chiqilishini anglatadi, bu esa ko‘pchilik uchun birmuncha og‘riqli kechadi.

Ma’lumki, G‘arbda gender mazmuni nafaqat jinsiylikka, balki ongli yoki ongsiz ravishda tengsiz munosabatlar asosiga qurilgan mafkura va institutlarga qarshi qaratilgan edi. Shu bois, eng avvalo, gender nazariyalari ta’lim amaliyotlari, bilish va ta’lim jarayonini tanqid qilish shaklida namoyon bo‘lgan va jamiyatdagi mavjud siyosiy nuqtai nazarni ifodalagan. Bugungi kunga kelib, hech qanday boshqa tadqiqot va ta’lim strategiyalari Amerika va Yevropadagi akademik ta’lim tuzilmalarining o‘zgarishiga bu qadar kuchli ta’sir ko‘rsata olmaganligi tan olingan.

Natijalar va muhokama. Tahlilchilar gender g‘oyasi doirasida yetakchi metodologik yondashuvlarni belgilar ekan, ulardan bir nechta asosiylarini ajratib ko‘rsatadilar. Xususan, gender g‘oyasi metodologiyasining dastlabki usulida ko‘proq amerikacha feministik yondashuv an’anasi keng o‘rin olgan.

Metodologiyaning ikkinchi turi esa fransuzcha feministik nazariya va amaliyot an’anasiga mos keladi. Metodologiyaning har bir turi o‘ziga xos tavsif tiliga ega. Birinchi holda tavsiflash tili, subyekt, ong, o‘zlikni anglash va hokazo tushunchalarni qo‘llaydi. Bu turga xos til voqelikning makrojarayonlari, ya’ni tizimli va ko‘zga ko‘rinadigan jarayonlarni ta’riflaydi.

Mikrovoqelik-tizimlashtirilgan o‘xshashlik darajasida emas, balki yagonalikka («erkaklarga oid» yoki «ayollarga oid») umumiy ko‘plik darajasida sodir bo‘ladigan hodisalardir. Bunday yondashuvda ayol kishi erkaklarga nisbatan mutlaqo boshqa mavjudot sifatida anglanadi. Chunki voqelikning har qanday tizimi unga yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lishga imkon bermaydigan «boshqa», «farqli» kabi fenomenlarning borligi vositasida ifodalanadi. Shu tariqa «jinsning» binar (qo‘sh) tushunchasi o‘rniga ko‘plik, ya’ni «gender» tushunchasi shakllanadi.

Farqlanish nazariyasining tan olinishi natijasida endi gender g‘oyasi doirasida ham umumfalsafiy borliq haqidagi ta’limotlarning tamoyillariga tayangan holda fikr yuritish imkoni yuzaga keldi. Masalaga bunday yondashuv esa umumfalsafiy tamoyillar genderning umuman ijtimoiy voqelik sifatida rivojlanishi va xususan, gender g‘oyasiga asoslanib tadqiq etiladigan aniq muammolarni o‘rganilish darajasiga ham xosdir.

«Man’s studies» ta’limotining shakllanishi va rivojlanishi o‘z navbatida gender g‘oyasining tuzilishi va taraqqiyotida muhim burilish bosqichi bo‘lib xizmat qildi. An’anaviy qarashlarga binoan, o‘zaro munosabatlarda erkaklarga xos xususiyatlar o‘zining aniqligi, tabiiyligi bilan ajralib turadi, ayollarga xos sifatlar esa ziddiyatli xarakterga ega, deb tushunilar edi. Gender ta’limotining rivojlanishi jarayonida bunday qarashlar tez orada o‘z-o‘zidan barham topdi. Ayollar hayotdagi o‘z mavqelarini qayta anglagan holda erkaklarni ham ushbu masalani o‘ylab ko‘rishga majbur qildilar. Natijada odatdagi «ayollik siri» o‘rniga «erkaklik jumbog‘i» to‘g‘risida fikrlar yuzaga kelib, jiddiy muhokamaga sabab bo‘ldi va bu borada hali o‘rganilmagan tomonlar ham mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi. Erkaklikning mohiyatini izohlab kelgan hukmron fikrlar barham topdi va endilikda gender g‘oyasi erkaklarning an’anaviy obrazidan yangi qarashlarni izohlovchi yondashuvga o‘tishini amalga oshirmoqda [6].

Birinchi bo‘lib «Erkak kim?» degan savolni amerikalik antropologlar ko‘tarib chiqdilar, keyinchalik bu masalaning mohiyatiga angliyalik, avstraliyalik va skandinaviyalik tadqiqotchilar ham qiziqa boshladilar. Bugungi kunga kelib ushbu mamlakatlarda erkaklarga oid 200 dan ortiq turli tadqiqot markazlari mavjud. Ushbu mamlakatlarda erkaklar to‘g‘risidagi g‘oyalar nihoyatda keng yoyilganligi tufayli endilikda gender g‘oyasi dolzarb bo‘lib qoldi. Hukmronlik, ustunlik, ayollarga xos xususiyatlarni rad etish kabi uzoq davr mobaynida shakllangan gender andozalari erkaklarning mavqelarini yuksaltirishga xizmat qilib kelgan. Erkaklarga xos zamonaviy tadqiqotlarda erkaklik xususiyatlari shakllanishining bosqichlari, erkaklarga oid tarixiy

DOI: 10.65322/j.srd.04182026.37

tanazzullar, maskulinlik obrazlarini shakllantirishda gender texnologiyalarining o‘ziga xosligi kabi qator masalalar tahlil qilinadi. Maskulinlikning o‘ziga xos asosiy g‘oyasi - «erkak bo‘lish - oldindan hukmron bo‘lishga mahkumlik, erkaklik illyuziyasi va egalik huquqini oqlaydi» (P.Burde). Va o‘z navbatida, egalik qilish, hatto xayoliy bo‘lsa-da erkaklikni qanoatlantiradi. «Erkaklik mohiyati: tarixiy transformatsiya» mavzusining birmuncha to‘liq bayoni E. Badenter ishlarida keltirilgan. U erkaklarni «insoniylashtirish» jarayonini ishonchli dalillar bilan tasvirlab bera olgan. Olim erkaklar turmush tarzining turli tipologiyalarini asoslash bilan bir qatorda, «mayib» erkak deb ataladigan tipning jamiyatda eng keng tarqalgan tur ekanligini aniqlab beradi. Shuningdek, u mazkur qat’iy gender rollarini «buyuk ota-onalar inqilobi» tomon yo‘naltirilgan gumanistik harakat orqali bartaraf etishning istiqbolli yo‘nalishlarini taklif etadi [7].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, «gender» tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik esa bevosita gender tadqiqotlari doirasida shakllangan. Bugungi kunga kelib gender muammolariga bag‘ishlangan alohida tadqiqotlar tizimi ham shakllandi va ushbu tizim asosida falsafa, psixologiya, huquq, pedagogika, meditsina kabi fanlar doirasida o‘rganiladigan muammolar tanlab olinib, ular fanlararo tadqiqotlar sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, zamonaviy jamiyatshunoslik fani gender tushunchasini va uning shakllarini ijtimoiylik nuqtai nazaridan tahlil qilishni va uni muhim ilmiy-nazariy asoslardan biri sifatida e’tirof etish masalalarini ilgari surmoqda.

Ijtimoiy falsafaning gender borasidagi muammosi asosan erkak va ayolning jamiyatdagi roli, ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarining genezisi va o‘zgarishlarini jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bo‘g‘liq jarayonlarni nazariy jihatdan o‘rganishdan iboratdir. Umumlashtirilgan shaklda gender muammosi ikkita asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1. Biologik jihat.
2. Ijtimoiy - ma’naviy jihat .

Ijtimoiy hayotdagi gender fenomeni bilan bog‘liq jarayonlar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Erkaklar va ayollarning jamiyatdagi rolini belgilovchi ijtimoiy reyting (ijtimoiy obro‘ va hurmat darajasi).
2. Erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi ijtimoiy tabaqalanish (ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy iyerarxiya).
3. Oila va nikoh munosabatlaridan iborat

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Мравьева Н.Ўзбекистон хотин-қизлар ижтимоий мақомини юксалтириш. – Т., 2004. – Б.23.
2. Революция в интересах равенства мужчин и женщин. Доклад о развитии человека за 1995 год. – Нью-Йорк: Оксфорд юниверсити пресс, 1995. – С. 6.
3. Алешина Ю.Е., Волович А.С. Проблема освоения ролей мужчины и женщины // Вопросы психологии, 1991. – №4. -С.74.
4. Муравьева Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Т., 2004. – Б.18.
5. Ахмедшина Ф. Оила ва гендер тенглиги Репродуктив маданият ва маънавият муаммолари. Республика “Оила” илмий-амалий маркази. – Т., 2002. – Б. 17-18.
6. Гендерная психология. Практикум. 2-изд. / Под ред. И.С. Клециной. – Санк-Петербург: Питер, 2009. – С. 20-21.
7. Шабурова О.В. Гендер / Современный философский словарь под ред. В.Е. Кемерова. – Минск: Панпринт, 1998. – С.183.